

QO‘QON DAVLAT
PEDAGOGIKA INSTITUTI
ILMIY XABARLARI
(2025-yil 2-son)



FILOLOGIYA
PHILOLOGY

RUS TILI VA MADANIYATINI O‘RGATISH JARAYONIDA LINGVOKULTUROLOGIK YONDASHUVLARDAN FOYDALANISH

Nabiyeva Dilshoda Urakovna

Shahrisabz davlat pedagogika instituti, rus tili o‘qituvchisi

+998 91 463 52 23

Annotatsiya. Ushbu maqolada rus tilini xorijiy til sifatida o‘qitishda lingvokulturologik yondashuvning mohiyati va uning ta’lim jarayonidagi ahamiyati tahlil qilinadi. Til va madaniyat o‘zaro uzviy bog‘liq bo‘lib, bu yondashuv orqali talabalar nafaqat lingvistik bilimlarni, balki rus xalqining madaniyati, urf-odatlar va mentalitetini ham chuqur o‘rganadilar. Maqolada lingvokulturologik metodlarning samaradorligi, frazeologizmlar, milliy bayramlar, adabiyot va kino, shuningdek, madaniyatlararo kommunikatsiya orqali til o‘rgatish usullari ko‘rib chiqiladi. Natijalarga ko‘ra, lingvokulturologik yondashuvdan foydalanish talabalar til kompetensiyasini oshirish bilan birga, ularning madaniyatlararo muloqot qobiliyatlarini ham rivojlantirishi mumkin.

Kalit so‘zlar: rus tili, lingvokulturologiya, til va madaniyat, lingvokulturologik yondashuv, til o‘qitish metodikasi, madaniyatlararo kommunikatsiya, til kompetensiyasi, frazeologizmlar, rus adabiyoti, madaniy kompetensiya.

Абстракт. В данной статье анализируется сущность лингвокультурологического подхода к преподаванию русского языка как иностранного и его значение в образовательном процессе. Язык и культура неразрывно связаны, и благодаря такому подходу студенты изучают не только языковые знания, но и культуру, обычаи и менталитет русского народа. В статье рассматривается эффективность лингвокультурологических методов, методов обучения языку через фразеологию, национальные праздники, литературу и кино, а также межкультурную коммуникацию. Согласно результатам, использование лингвокультурного подхода позволяет улучшить языковую компетенцию студентов и развить их навыки межкультурного общения.

Ключевые слова: русский язык, лингвокультурология, язык и культура, лингвокультурологический подход, методика преподавания языка, межкультурная коммуникация, языковая компетенция, фразеологизмы, русская литература, культурная компетенция.

Annotation. This article examines the essence of the linguocultural approach in teaching Russian as a foreign language and its significance in the educational process. Language and

culture are inherently interconnected, and this approach enables students to acquire linguistic knowledge and understand Russian culture, traditions, and mentality deeply. The article explores the effectiveness of linguocultural methods, including teaching phraseological units, national holidays, literature, cinema, and intercultural communication. The findings suggest that the implementation of a linguocultural approach can enhance students' language competence while also developing their intercultural communication skills.

Keywords: Russian language, linguoculturology, language and culture, linguocultural approach, language teaching methodology, intercultural communication, language competence, phraseological units, Russian literature, cultural competence.

KIRISH.

Hozirgi globalizatsiya sharoitida rus tilini o‘rgatish jarayoni nafaqat lingvistik bilimlarni egallashni, balki rus madaniyatini ham chuqur o‘rganishni talab etadi. Til va madaniyat bir-biri bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, til faqat muloqot vositasi emas, balki xalqning tarixiy, ijtimoiy va madaniy tajribasini o‘zida aks ettiradi. Shuning uchun rus tilini chet tili sifatida o‘rgatishda lingvokulturologik yondashuvdan foydalanish dolzarb masala hisoblanadi. Ushbu maqolada lingvokulturologik yondashuvning mohiyati, uni o‘qitish jarayonida qo‘llash usullari va samaradorligi tahlil qilinadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODAR.

Rus tilini lingvokulturologik yondashuv asosida o‘qitish bo‘yicha ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish jarayonida bir nechta muhim jihatlar e‘tiborga olinadi. Avvalo, lingvokulturologiya va til o‘qitish metodikasiga oid nazariy manbalar tahlil qilinadi. Ushbu yo‘nalishda V.V. Vorobyov [5], E.M. Vereshchagin va V.G. Kostomarov kabi olimlarning tadqiqotlari muhim o‘rin tutadi, chunki ularning ilmiy ishlari lingvokulturologiyaning nazariy asoslarini yoritib beradi. Shuningdek, rus tilini lingvokulturologik yondashuv asosida o‘qitishning samaradorligini aniqlashga qaratilgan empirik tadqiqotlar ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday tadqiqotlar talabalar bilan olib borilgan tajriba-sinov ishlari orqali amalga oshiriladi. Bundan tashqari, rus tilini chet tili sifatida o‘qitishga oid darsliklar, qo‘llanmalar va elektron resurslar tahlil qilinib, ushbu yondashuvning o‘quv jarayonidagi o‘rni va samaradorligi aniqlanadi.

Tadqiqot jarayonida bir nechta metodlardan foydalaniladi. Lingvokulturologik tahlil usuli yordamida rus tilidagi matnlar, frazeologizmlar, maqollar va matallar madaniy jihatdan o‘rganiladi. Bu yondashuv orqali til birliklarining milliy va madaniy xususiyatlari aniqlanadi hamda ularning ta‘lim jarayonida qanday o‘rgatilishi muhokama qilinadi [4, 28]. Komparativ tahlil metodi orqali rus tili va o‘quvchilarning ona tili, masalan, o‘zbek yoki ingliz tili o‘rtasidagi lingvokulturologik farqlar solishtiriladi. Bunda turli tillarda madaniyatni aks ettiruvchi til birliklari va ifodalar tahlil qilinib, ularning tarjima jarayonidagi o‘ziga xos jihatlari aniqlanadi.

Eksperimental metod asosida lingvokulturologik yondashuv bo‘yicha dars mashg‘ulotlari o‘tkazilib, talabalar natijalari baholanadi. Ushbu metod orqali lingvokulturologik elementlarni o‘zlashtirish jarayonida talabalar qiyinchiliklarga duch kelish-kelmasligi aniqlanadi va

natijalarga asoslangan holda pedagogik tavsiyalar ishlab chiqiladi. Anketaviy so‘rov va intervyu metodlari orqali talabalar va o‘qituvchilar orasida so‘rov o‘tkazilib, lingvokulturologik yondashuvning samaradorligi haqida fikrlar to‘planadi. Ushbu usul yordamida talabalar rus madaniyatiga oid bilimlarni qanchalik samarali o‘zlashtirayotganini aniqlash mumkin. Pedagogik kuzatish usuli esa o‘quv jarayoni davomida talabalar lingvokulturologik elementlarni o‘zlashtirish darajasini baholash va ularning amaliy qo‘llanilishiga e‘tibor qaratishga yordam beradi.

Yuqoridagi metodlardan foydalanish natijasida lingvokulturologik yondashuvning rus tili ta’limidagi o‘rni yanada aniqroq tushuniladi. Shuningdek, ushbu metodlar yordamida talabalar til kompetensiyasini oshirish bilan birga, madaniyatlararo muloqot qobiliyatlarini ham rivojlantirishi mumkin.

NATIJALAR VA MUHOKAMA.

Lingvokulturologiya lingvistika va madaniyatshunoslikning kesishgan nuqtasida joylashgan fan bo‘lib, til orqali milliy madaniyatni o‘rganishni o‘z ichiga oladi. Bu yondashuv til birliklarini faqat grammatik va leksik jihatdan emas, balki ularning madaniy xususiyatlari, kontekst va mentalitet bilan bog‘liq tomonlarini ham tahlil qiladi.

V.V. Vorobyev ta’kidlaganidek, lingvokulturologiya «til va madaniyat o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni o‘rganadigan fan» hisoblanadi. Bu yondashuv yordamida talabalar rus tilida muloqot qilish bilan birga, rus xalqi madaniyatini, an’analari va mentalitetini ham tushunib yetadilar.

Rus tilini o‘qitishda lingvokulturologik yondashuv turli metodlar orqali amalga oshiriladi. Ushbu yondashuv tilni nafaqat lingvistik jihatdan, balki madaniy kontekstda ham o‘rganishga imkon yaratadi.

Frazeologizmlarni o‘rgatish madaniy tushunchalarni shakllantirishda muhim o‘rin tutadi. Rus tilida milliy mentalitetni aks ettiruvchi iboralar juda ko‘p uchraydi. Masalan, «Работать спустя рукава» iborasi dangasalik bilan ishlashni, «Как снег на голову» esa kutilmaganda sodir bo‘lishni bildiradi. «Москва не сразу строилась» iborasi esa katta natijaga erishish uchun vaqt va harakat talab qilinishini ifodalaydi. Ushbu frazeologizmlarni o‘rgatish orqali talabalar rus xalqi mentaliteti, qadriyatlari va dunyoqarashi haqida ham tushuncha hosil qiladilar.

Milliy urf-odatlar va bayramlar orqali til o‘rgatish ham samarali usullardan biridir. O‘quv jarayonida rus xalqining milliy bayramlari, masalan, Maslenitsa, Pasxa, Yangi yil haqida ma’lumot berish talabalar uchun qiziqarli bo‘lishi mumkin. Ushbu bayramlarga oid matnlarni o‘qish va muhokama qilish tilni chuqurroq o‘zlashtirishga yordam beradi. Masalan, Maslenitsa bayrami haqida tushuncha berish orqali «блины» (quymoqlar), «гуляние» (sayr qilish) kabi so‘zlarning ma’nosini va ular bilan bog‘liq madaniy kontekstni tushuntirish mumkin.


Adabiyot va kino orqali madaniy kompetensiyani rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. Rus adabiyotidan A.S. Pushkin, F.M. Dostoyevskiy, L.N. Tolstoy kabi yozuvchilarning asarlari o‘quv jarayonida ishlatilishi mumkin. Shuningdek, zamonaviy rus filmlari va seriallari orqali talabalar real nutq namunalari bilan tanishib, madaniy o‘ziga xoslikni tushunib yetadilar.

Masalan, «Ирония судьбы, или С лёгким паром!» filmi rus xalqining Yangi yil bayramiga bo‘lgan munosabatini aks ettiradi [7, 42].

Madaniyatlararo muloqotni shakllantirish uchun interaktiv metodlardan foydalanish muhimdir. Dars jarayonida rolli o‘yinlar, madaniy munozaralar, rus tilida kundalik muloqotda ishlatiladigan ijtimoiy formulalarni o‘rgatish talabalar uchun samarali bo‘ladi. Masalan, rus tilida muomala qilishda «ВЫ» va «ТЫ» shakllarini qachon ishlatish kerakligi madaniy kontekstga bog‘liq bo‘lib, buni amaliy mashg‘ulotlar orqali tushuntirish muhim.

Lingvokulturologik yondashuvdan foydalanish til va madaniyatni integratsiyalashgan holda o‘rgatish imkonini beradi. Bu talabalar uchun real muloqotda yanada qulay sharoit yaratadi. Bundan tashqari, madaniy kontekstli materiallar til o‘rganishga qiziqishni oshiradi, chunki ular qiziqarli va tushunarli bo‘ladi. Lingvokulturologik yondashuv kommunikativ kompetensiyani rivojlantirib, talabalar nafaqat grammatik jihatdan to‘g‘ri gapirishni, balki madaniy jihatdan ham mos tarzda fikr bildirishni o‘rganadilar. Ushbu yondashuv madaniyatlararo kompetensiyani shakllantirib, talabalar global dunyoda turli millat vakillari bilan samarali muloqot qilish imkoniyatiga ega bo‘lishlarini ta‘minlaydi.

Ushbu maqolada rus tilini o‘qitishda lingvokulturologik yondashuvdan foydalanishning samaradorligi tahlil qilindi. O‘tkazilgan tadqiqotlar va amaliy tajribalar shuni ko‘rsatadiki, lingvokulturologik yondashuv til o‘rganuvchilarning nafaqat grammatik bilimlarini oshirishga, balki madaniy kompetensiyalarini rivojlantirishga ham xizmat qiladi. Frazologizmlar va milliy mentalitetni aks ettiruvchi iboralarni o‘rgatish talabalar nutqini boyitib, ularning rus xalqining madaniyati va qadriyatlarini chuqurroq tushunishga yordam beradi. Bu esa tabiiy va jonli muloqot ko‘nikmalarini shakllantirishga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi. Milliy urf-odatlar va bayramlarni o‘rganish orqali til o‘zlashtirish o‘quv jarayonini yanada qiziqarli va samarali qiladi. Madaniy jihatdan boyitilgan darslar talabalarni til muhitiga yanada yaqinlashtirib, o‘zaro tushunish va kommunikativ kompetensiyani rivojlantiradi. Adabiyot va kino materiallaridan foydalanish talabalarining tahlil qilish qobiliyatini oshirib, real nutq muhitida rus tilidan foydalanish ko‘nikmalarini mustahkamlaydi. Bunday materiallar orqali talabalar rus tilining lingvistik va madaniy jihatlarini yaxshiroq anglaydilar. Interaktiv metodlar, jumladan, rolli o‘yinlar va madaniyatlararo muloqot mashg‘ulotlari talabalarni faol ishtirok etishga undaydi. Bu usullar yordamida talabalar tilni nafaqat bilish, balki uni turli kontekstlarda to‘g‘ri qo‘llashni ham o‘rganadilar. Lingvokulturologik yondashuv asosida o‘qitish rus tilini o‘rganayotgan talabalar uchun samarali metod hisoblanadi. Bu yondashuv nafaqat lingvistik bilimlarni shakllantirish, balki rus madaniyatini tushunish va madaniyatlararo muloqotni rivojlantirishga ham xizmat qiladi. Shu sababli, kelgusida ushbu metodni yanada takomillashtirish va uni zamonaviy texnologiyalar bilan uyg‘unlashtirish o‘quv jarayonining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.



1-diagramma

Yuqoridagi diagramma rus tilini o‘qitishda lingvokulturologik yondashuvning samaradorligini aks ettiradi. Eng yuqori natijaga ega bo‘lgan yo‘nalishlar adabiyot va kino orqali madaniy kompetensiyani rivojlantirish (90%) hamda lingvokulturologik yondashuv asosida umumiy samaradorlik (92%) bo‘ldi. Bu esa ushbu yondashuvning talabalar uchun qiziqarli va samarali ekanligini ko‘rsatadi.

XULOSALAR.

Rus tilini o‘qitishda lingvokulturologik yondashuvdan foydalanish zamonaviy ta’limning ajralmas qismi bo‘lib, talabalar tilni yanada samarali o‘zlashtirishlari uchun qulay muhit yaratadi. Ushbu yondashuv tilni grammatik va leksik jihatdan emas, balki madaniy kontekstda tushunishga yordam beradi, natijada talabalar real hayotda rus tilidan muvaffaqiyatli foydalana oladilar. Shuning uchun rus tilini xorijiy til sifatida o‘rgatishda lingvokulturologik metodlarni keng qo‘llash muhim ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Ter-Minasova S.G. Language and Intercultural Communication. – Moscow: Slovo, 2000. – 256 p.
2. Wierzbicka A. Understanding Cultures through Their Key Words. – Oxford: Oxford University Press, 1997. – 328 p.
3. Баранов А.Н. Фразеология в контексте культуры. – М.: Знание, 2007. – 198 с.
4. Беляевская Е.Г. Лингвокультурологический аспект преподавания русского языка как иностранного. – СПб.: Филологический факультет СПбГУ, 2013. – 219 с.
5. Воробьев В.В. Лингвокультурология: теория и методология. – М.: Академия, 2008. – 304 с.
6. Гак В.Г. Язык и культура. – М.: Флинта, 2010. – 347 с.
7. Карасик В.И. Языковой круг: личность, концепты, дискурс. – Волгоград: Перемена, 2002. – 272 с.

8. Красных В.В. Этнопсихоллингвистика и лингвокультурология. – М.: Изд-во МГУ, 2002. – 288 с.

9. Лихачев Д.С. Концептосфера русского языка. – СПб.: Наука, 1993. – 183 с.

10. Стернин И.А. Методика лингвокультурологического анализа текста. – Воронеж: Изд-во ВГУ, 2009. – 212 с.